

INDEKS 1072



EZGU FIKR, EZGU SO‘Z, EZGU AMAL!

8-DEKABR – O‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGAN KUN

ILM SARCHASHMALARI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETINING
ILMIY-METODIK JURNALI



ISSN 2010-6246



9 772010 624002

2020-11

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komisiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

11.2020

**научно-методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2020

Bosh muharrirdotsent Ro‘zimboy YO‘LDOSHEV

TAHRIR HAY’ATI:	
JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN	ABDULLAYEV Bahrom , fizika-matematika fanlari doktori, ABDULLAYEV Ikrom , biologiya fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV Ilyos , iqtisod fanlari doktori, ABDULLAYEV Ravshanbek , tibbiyot fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV O’tkir , tarix fanlari doktori, ANNAMURATOVA Svetlana , pedagogika fanlari doktori, professor, BOBOJONOV Bozorboy , fizika-matematika fanlari doktori, BERDIMUROTOVA Alima , falsafa fanlari doktori, professor, DAVLETOV Sanjarbek , tarix fanlari doktori, DO’SCHONOV Tangribergan , iqtisod fanlari doktori, professor, HAJIYEVA Maqsuda , falsafa fanlari doktori, IBRAGIMOV Zafar , fizika-matematika fanlari nomzodi, IMOMQULOV Sevdiyor , fizika-matematika fanlari doktori, JO’RAYEV Mamatqul , filologiya fanlari doktori, professor, JUMANIYAZOV Maqsud , texnika fanlari doktori, professor, JUMANIYOZOV Otoboy , filologiya fanlari nomzodi, professor, KALANDAROV Aybek , filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (mas’ul kotib), NAVRUZOV Qurolboy , fizika-matematika fanlari doktori, professor, OLLAMOV Yarash , yuriduk fanlari nomzodi, dotsent, OTAMURODOV Sa’dulla , falsafa fanlari doktori, professor, PRIMOV Azamat , filologiya fanlari nomzodi, dotsent, QUTLIYEV Uchqun , fizika-matematika fanlari doktori, professor, RO’ZIMBOYEV Safarboy , filologiya fanlari doktori, professor, RO’ZIYEV Erkinboy , pedagogika fanlari doktori, professor, SADULLAYEV Azimboy , fizika-matematika fanlari doktori, akademik, SADULLAYEVA Nilufar Azimovna , filologiya fanlari doktori, SAGDULLAYEV Anatoliy , tarix fanlari doktori, professor, SALAYEV San’atbek , iqtisod fanlari doktori, professor, SALAYEVA Muxabbat Soburovna , pedagogika fanlari doktori, SATIPOV G‘oipnazar , qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor, XODJANIYOZOV Sardor , pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘rnibosari), YOQUBOV Jamoliddin , filologiya fanlari doktori, professor, O’ROZBOYEV Abdulla , filologiya fanlari doktori, O’ROZBOYEV G‘ayrat , fizika-matematika fanlari doktori, G‘AYIPOV Dilshod , filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI	
2020 11(161)	

MUASSIS: Urganch davlat universiteti.

GUVOHNOMA №1131

FALSAFA

Turdiyev Bexruz Sobirovich (BuxDU Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi, bekhruz0302@gmail.com)

SHARQ VA G‘ARB MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTI MA’NAVIY YANGILANISHLAR MEZONI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq va G‘arb mutafakkirlari Zardusht, Konfutsiy, Suqrot, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino va Nizomulmulkarning jamiyat taraqqiyotida ma’naviy yangilanishlar to‘g‘risidagi qarashlarining bugungi fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy tahlil etilgan.

Аннотация. В статье проведен научный анализ взглядов таких мыслителей Востока и Запада, как: Зороастр, Конфуций, Сократ, Платон, Аристотель, Фараби, Ибн Сина и Низамулмulk о роли духовного обновления в развитии общества, что является актуальным и для формирования современного гражданского общества.

Annotation. The article provides a scientific analysis of the views of thinkers of the East and West, such as: Zoroaster, Confucius, Socrates, Plato, Aristotle, Farabi, Ibn Sina and Nizamulmulk about the role of spiritual renewal in the development of society, which is also relevant for the formation of modern civil society.

Kalit so‘zlar: taraqqiyot, ma’naviy yuksalish, qadriyat, dialektika, islohot, fuqaro, baxt, hadis, axloq, ilm-fan.

Ключевые слова: развитие, духовный рост, ценности, диалектика, реформа, гражданство, счастье, хадис, мораль, наука.

Key words: development, spiritual growth, values, dialectics, reform, citizenship, happiness, hadith, moral, science.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida ma’naviy yangilanishlar to‘g‘risidagi turli g‘oya va qarashlar ni chuqur va atroficha tahlil etmay, ulardan tegishlicha saboqlar olmay, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari degan eng ulug‘ maqsadni amalga oshira olmaymiz.

Shu bois insoniyat tarixida jamiyatning ma’naviy yuksalishi haqidagi turli davrdagi buyuk allomalar, davlat va jamoat arboblарining ilmiy-falsafiy qarashlaridan qancha ko‘p ma’lumotlarni tadqiq etsak, jahoning rivojlangan davlatlarining ijobjiy jihatlarini o‘rgansak, mamlakatimizni jahon tendensiyalariga mos ravishda rivojlantirishimiz, fuqarolarni davlat va jamiyatimizning milliy yuksalishiga faol ishtirokini ta’milagan bo‘lamiz.

Ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga nazar tashlasak, ma’naviy yangilanishlar jarayonining jamiyat taraqqiyotiga ta’sir doirasi sezilarli ekanligini Sharq va G‘arb mutafakkirlari tomonidan qoldirilgan ilmiy merosi guvohlik beradi. Shuning uchun buyuk faylasuf, mutafakkir olimlar va adolatli davlat boshliqlari millatni mahdudlik holatidan chiqarib, taraqqiyotni rivojlantirish maqsadida, birinchi navbatda, ma’naviy yangilanishlar omiliga e’tibor berganlar, jamiyat a’zolarini umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanga daxldorlik mas’uliyati, insonni e’zozlash, adolat uchun kurash, halol mehnat, jamoaviylik, oilaga sadoqat, do’stlarni hurmat qilish ruhida kamol toptirishga, ularda milliy g‘urur va iftixon, burch va mas’uliyat tuyg‘ularini kuchaytirishga harakat qilganlar.

Shundan kelib chiqib, ma’naviy yangilanishlarning jamiyat rivojida tutgan o‘rnini qadimgi Sharq va G‘arb faylasuf olimlarining ijodlaridan namunalar asosida ilmiy tahlil qilib chiqsak. Bejisga Sharq qadimdan ma’naviyat va sivilizatsiya o‘chog‘i sifatida ta’riflanmagan. Qadimgi Sharq faylasuflari ma’naviy yuksalish, shaxsning o‘zligini anglashi va kamol topishiga qaratilgan konsepsiylarda, avvalo, zardushtiylik, buddizm, konfutsiychilik falsafasida juda ko‘plab noyob dialektik g‘oyalari ilgari surilgan.

Ayniqsa, bu borada Zardushtning falsify-ijtimoiy qarashlari diqqatga sazovor. Zardushtiylik jamiyatni tinch va osoyishtalik, barqaror holatda bo‘lishi, insonlarning bir-birlariga maslakdosh, ko‘makdosh bo‘lishi kabi g‘oyalarni lgari surgan. Zardusht falsafasidagi “O‘zgalarga yorug‘lik istagan kimsalarga yorug‘lik nasib etadi. Haqiqat nurlari ostida, Ezgu Niyatdan yaralgan ma’rifatingdan bizlarga hadya qil, toki tirikligimizning har lahza, har soat, har bir kunida shodmonlikdan bahramand bo‘laylik” yoxud “Olam

obodligi uchun g‘ayrat ko‘rsatmoq lozim, uni yaxshilik bilan asramoq va yorug‘lik sari eltnoq kerak”¹ singari fikrlar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qtogani yo‘q. U o‘z davrida xalqni ezgulik va adolat g‘oyaligida da’vat etish, hayotbaxsh an’analarni shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, uning g‘oyalari bilan bog‘liq qadriyatlar bugungi kungacha ya-shab kelmoqda va xalqimiz turmush tarzining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashda ulkan qimmat kasb etmoqda.

Qadimgi Xitoydagagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida Konfutsiyning (551–479) qarashlari ham alohi-da o‘rin tutadi. U qadimgi Xitoydagagi ijtimoiy-falsafiy fikrning rivojiga katta hissa qo‘shtan. Mutafakkirning “Aforizmlar” asari teran falsafiy g‘oyalari bilan mashhurdir. Konfutsiyning falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar markaziy o‘rin tutadi. Qadimgi ajdodlarning urf-odatlari, marosimlari, tariqatiga tayangan Konfutsiy o‘tganlarning shuhratni ularning avlodlarini yuksaltiradi, deb jamiyatning haqiqiy negizi, poy-devorini yanada mustahkamlash uchun qadimgi urf-odatlari, marosimlar, an’analarni tiklash va ularga amal qilish zarurligini uqdiradi.² Hozirgi kunda Konfutsiy tomonidan yaratilgan ta’limotning maqsadga muvofiqligini mamlakatimizda qadimgi urf-odat, an’ana, milliy marosim va bayramlarimizning, ajdodlarimiz tarixiy xotiralarining tiklanishi borasidagi ma’naviy-ma’rifiy islohotlarimizda ko‘rishimiz mumkin.

Qadimgi dunyoda falsafiy fikr taraqqiy etgan mamlakatlardan biri Yunoniston edi. Qadimgi Yunonistonda falsafa ijtimoiy hayotning in’ikosi sifatida tabiat to‘g‘risidagi bilimlar bilan bog‘lanib bir butun dunyoqarashni o‘zida mujassamlantirgan edi. Qadimgi Yunonistonda Suqrot, Platon va Aristotel asos sol-gan falsafiy oqimlar idealistik dunyoqarashni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Suqrot (eramizdan oldingi 469–399-yillar) – qadimgi Yunon faylasufi. Afinaning ijtimoiy hayotida faol ishtiroy etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug‘ullangan, hurfikrli inson, kambag‘aldan chiqqan, tosh yo‘-nuvchining o‘g‘li, o‘ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo‘lgan.³ Suqrotning fikricha, falsafaning markazi-da axloq masalalari turmog‘i lozim. Jamiyatning ravnaqi, tinchlik va osoyishtaligi, farovon hayoti axloq va odobning ahvoliga bog‘liq. Bu masalalar Sharq falsafasida ham katta o‘rin tutganligi bois xalqimiz, buyuk allomalarimiz Suqrot nomini hurmat bilan tilga olgan, uning axloq-odob haqidagi pand-nasihatlariga amal qilishgan.

Jahon falsafasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk alloma, faylasuf, san’atshunos olim Platondir. Uning fikricha, “Kimki, davlatlarga jamiyat va umumxalq muomalasida bo‘ladigan axloqning hayotiy qoidalari to‘g‘rsida qonunlar berishni o‘ylab, ammo xususiy hayotga e’tibor berishni zarur deb hisoblama-gan bo‘lsa, bu bilan hammaga hamda har kimga o‘zi xohlaganicha kun o‘tkazishiga imkoniyat yaratib bergen bo‘lsa, fuqarolar, o‘zlarining xususiy hayotlari qonunlashtirilmaganiga qaramay, jamiyat va umumxalq hayotida qonunlarga mos yashaydilar, deb hisoblasa, u noto‘g‘ri mulohaza yuritgan bo‘ladi”⁴.

Platonning ideal davlat to‘g‘risidagi orzulari negizida adolat g‘oyasi yotadi. Platon aytganidek, ja-miyat barcha a’zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo‘ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garo-vidir.

O‘zining qomusiy merosi bilan jahonni lol qoldirgan, ilmiy-falsafiy g‘oyalari bilan sharqda “Birin-chi muallim” sifatida e’tirof etilgan buyuk faylasuf Aristoteldir. Aristotel fikricha, haqiqiy baxtni anglash ma’naviy yuksak, to‘g‘ri fikrlovchi kishiga taalluqlidir. Har bir insonning go‘zallik to‘g‘risida tasavvuri bor. Bunda ma’naviy insonning buyuk yutug‘i ko‘rinib turibdi. Faylasuf har bir alohida holatda haqiqatni topadi. Bu uning mezoni va qonuni hisoblanadi. Ma’naviy inson aql bilan fazilatlar birligiga amal qiladi-gan kishidir. Fazilat jonning qo‘lga kiritgan sifatidir. Jonning komil qismi qanchalik ko‘p bo‘lsa, fazilatlar ham shunchalik yuqori bo‘ladi.⁵

Umuman, qadimgi Sharq va G‘arb falsafasining ijtimoiy muammolari orasida axloq mavzusi yetak-chilik qiladi. O‘sha davrda yaratilgan hikmatli so‘z, iboralar bugungi kunda ham insonni mulohaza yuri-tishga majbur qiladi. Markaziy Osiyoda siyosiy fikrlarning vujudga kelishi va rivojlanishida islom dini ham muhim manbalardan biri bo‘ldi.

IX asrda maxsus islam ilmlari shakllandi. Greklardan o‘tgan falsafa, matematika, fizika va boshqa qator ilmlardan tashqari kalom, hadis, fiqh kabi islamiy ilmlar yuzaga keldi. Islom Sharqda nafaqat din si-

¹ Jo‘rayev N. Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik. T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015, 52 – 120-betlar.

² Konfutsiy. Hikmatlar. T., Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010, 9-bet.

³ Nazarov Q. Falsafa. T., “DITAF”, 2000, 37-bet.

⁴ Aflotun. Qonunlar. T., “Yangi asr avlodni”, 2002, 197-bet.

⁵ Nazarov Q. G‘arb falsafasi. T., “Sharq”, 2004, 162-bet.

fatida, balki yaxlit madaniyat, ma'naviyatning shakllanishida ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. U madaniyatning ilm-fan, san'at, axloq, siyosat kabi sohalarining rivojiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

Bu davrda diniy ilmlar sohalarida mintaqal shuhratini olamga tanitgan imom Buxoriy, imom Termeziy, Nizomulmulk, dunyoviy ilmlar sohasida esa, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino hamda tasavvuf ma'naviy-ma'rifiy ta'limoti sohasida Ahmad Yassaviy, Ahmad Yughnakiy, Yusuf Xos Hojib, Najmuddin Kubro, Bahouddin Naqshband va boshqa yirik alloma va mutafakkirlarning jamiyat taraqqiyoti rivojida ma'naviyat hodisasining beqiyos o'rni haqidagi qarashlari butun jahon ilmiy va falsafiy tafakkurining ravnaqiga hayotbaxsh hissa qo'shdi.

Abu Nasr Forobiy (873–950) jahon ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida "Sharq Aristoteli" ("Ikkinch muallim") degan unvonga sazovor bo'lgan mashhur qomusiy olimdir. Forobiy o'zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jamiyatning vujudga kelish sabablarini, axloqning shakllanishi, inson va jamiyatning o'zaro munosabatini, insoniylik, adolatparvarlik, tarraqiyot, buyuk jamiyat, komil inson kabi mavzularni ilmiynazariy jihatdan asoslashga harakat qilgan. Forobiy talqinicha, "...haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar – fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi – fazilatli jamoadir. Baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergan xalq – fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtaga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli bo'ladi".¹ Demak, Forobiy ta'biricha, jamiyat va xalqlarning o'zaro bir-biriga yordami, teng huquqlilik, adolatparvarlik tamoyillari fozil davlatning ma'naviy yuksalishga xizmat qiladi.

Ibn Sino (980–1037) jahon xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrining buyuk namoyandasini, Sharqda "Shayx ur-rais" (olimlar boshlig'i) degan nom bilan shuhrat qozongan qomusiy olim – mutafakkiridir.² U tabibgina bo'lib qolmasdan, o'z davrining buyuk mutafakkiri, keyingi asrlar fani, madaniyati, adabiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsata olgan buyuk siymo edi. Ibn Sino ijodidagi ajoyib xususiyatlardan biri shu ediki, u asarlarida o'z davrining juda ko'p ilg'or g'oyalarini aks ettira oldi. Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilimlarga yetishishni da'vat etgan. Chunki ilm-fan tabiat va jamiyat qonuniyatlarini ochib, avlodlarga yetkazadi. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rmasligi zarur, deydi. "Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqlaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rrog' idir".³ Zero, bilimli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqlaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

Nizomulmulk (1018–1092) oqilona va adolatli davlat boshqaruvi tufayli Malikshohning nomi tarixda qoldi. U "...davlatu donish va ezgu rasm-u odat yorug' shamga o'xshaydi. Va odamlar shu yorug'likda yo'llarini topib, qorong'ilikdan chiqadilar".⁴

Asar hozirgi davr siyosatchilari, davlat amaldorlari va mansabdar kishilarga, umuman, o'tmish tariximizga qiziquvchi barcha o'quvchilarga ma'naviy ruh va kuch beradi, deb o'ylaymiz.

Muxtasar qilib aytganda, yuqorida ko'rib chiqqan ma'naviy yangilanish to'g'risidagi mutafakkirlar fikrlari, nafaqat O'rta Osiyo, balki jahon xalqlari ma'naviy yuksalish tarixining ajralmas qismiga aylandi. Ushbu g'oyalar ijtimoiy muhit, inson munosabatlarini o'rganish, mavjud olamni bilish va uni o'zgartishga bo'lgan uzuksiz intilish jarayonida shakllanib, rivojlanib borganini va xalqlarning ilmiy tafakkurining o'sib borishi, ma'naviy yuksalib borishi, inson kelajagi haqidagi g'oyalarni olg'a surish va amalga oshirish uchun xizmat qilmoqda.

Жўраев Алишер Тўлқинбояевич (НамДУ тадқиқотчиси) ДАВЛАТ – БУНЁДКОР МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР ВА АНЪАНАЛАРНИ АСРАШ ОМИЛИ

Аннотация. Тадқиқотчи A.T.Жўраевнинг "Давлат – бунёдкор миллий қадриятлар ва анъаналарни асраш омили" номли ушибу мақоласида миллий қадриятлар ва маданий анъаналарни асраб қолили ва авлоддан-авлодга етказишда давлатнинг ўрни ҳамда унинг ушибу соҳага табиатан масъуллиги масалалари фалсафий контекстда таҳлил этилган.

Аннотация. В статье исследователя A.T.Жўраева "Государство – фактор сохранения сози-дательных национальных ценностей и традиций" в философском контексте произведен анализ места и естественной ответственности государства в вопросах сохранения и передачи от поко-

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., "Yangi asr avlodi", 2015, 288-bet.

² Xayrullayev M. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. T., "O'zbekiston", 1995, 59-bet.

³ Ibn Sino. Falsafiy qissalar. T., "Badiiy adabiyot" nashriyoti, 1963, 15-bet.

⁴ Nizomulmulk. Siyosatnama ("Siyar ul-muluk"). T., "Yangi asr avlodi", 2015, 20 – 21-betlar.

MUNDARIJA

МАТЕМАТИКА

Абдушукуров Абдурахим Ахмедович, Мансуров Дишишод Равилович. Асимптотические результаты для последовательных эмпирических процессов в информативных моделях неполных наблюдений.....	3
--	---

TARIX

Ялгашев Бунёд Махмудович. “Рухобод” зиёратгоҳи тарихи.....	8
--	---

FALSAFA

Turdiyev Bechkuz Sobirovich. Sharq va G‘arb mutafakkirlari qarashlarida jamiyat taraqqiyoti ma’naviy yangilanishlar mezonı.....	11
Жўраев Алишер Тўлқинбойевич. Давлат – бунёдкор миллӣ қадриятлар ва анъаналарни асрар омили.....	13

TAILSHUNOSLIK

Акбарова Зухро Акмалжоновна. Тилга оламни моделлаштириш воситаси сифатида қарашлар таҳлили.....	18
Тухтасинова Нигина Баширновна, Шахобиддинова Шахло Мухаммад қизи. Терминография – тилшунослик объекти сифатида.....	22
Жумаева Зубайда Шавкатовна. Соң символикали фразеологик бирликларнинг лингвокультурологик хусусиятлари.....	26
Saparbaeva Gulandam Masharipovna. Og‘zaki muloqot aktida diskurs marker masalasi.....	30
Тўлагонова Шахноза Абдумажидовна. Қадимги туркий битигларда мавжуд стереотип бирликлар тематикаси.....	33
Нурматов Сирожиддин Султанмуратович. Ҳиндий тилидаги баъзи сонларга оид лексемаларнинг ўзига хос шаклланиш хусусиятлари.....	36

ADABIYOTSHUNOSLIK

Salohiddinova Nigora Inomjonovna. Badiiy obraz nazariy-adabiy va estetik muammo sifatida.....	40
Тошниёзова Дилфузা Полвоновна. Ибни Давлат шеъриятида бадиий санъатларнинг қўлланиши....	42
Назарова Гулбаҳор Пирмановна. Британия фольклорида Эльф образининг генезиси ва бадиий талқини хусусида.....	46
Ахмедова Азиза Комиловна. Синклер Льюиснинг ҳақиқат изловчи қаҳрамонлари.....	50
Жумаев Акмал Ахматович. Эртакларда күшларнинг она тимсолида ифодаланиши.....	55
Юсупова Гузаль Рашитовна. Теоретические основы и перспективы исследования нарратива.....	58

PEDAGOGIKA

Дурменов Шуҳратжон Нурмаматович. Электрон дарслик – таълим жараёни унумдорлигини ошириш воситаси.....	62
Умаров Абдусаттор Ортиқович, Зоҳидов Иброҳимжон Обиджонович. 10-синф физика курсида “Амперметр ва вольтметрнинг ўлчаш чегарасини ошириш” мавзусини ўқитиш.....	64
Zunnunov Azizzon Olimxon O‘g‘li. Tayinlangan kompaktdagi differensial o‘yinlarda quvish masalasi....	68
Ибраимов Асқар Ебсоғиnovич. Масофавий малака ошириш порталининг дидактик хусусиятлари ва функциялари.....	74
Адизов Бобир Бахтиёрович. Ҳозирги янгиланиш даврида олий таълим тизимини замонавий бошқаришдаги ёндашувлар.....	77
Узокова Лайло Полвоновна, Турдиева Мохира Жўрақуловна. Технологиясини таълим жараёнига татбиқ этишнинг дидактик аспектлари.....	80
Mamatdaliyeva Hayotxon Muhammadqodirovna. Matematika fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning interfaol usullari.....	84

“ILM SARCHASHMALARI”

Urganch davlat universitetining ilmiy-metodik jurnali

Muharrir **Ro‘zimboy Yo‘ldoshev**
Texnik muharrir **Sherali Yo‘ldoshev**
Musahhihlar: **Tamara Turumova,**
Aybek Kalandarov
Ushbu songa mas’ul **Azamat Primov**

Terishga berildi: 20.10.2020
Bosishga ruxsat etildi: 31.10.2020.
Offset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.
Rizograf bosma usuli. Tayms garniturası.
Adadi 150. Buyurtma №. 52
Hisob-nashriyot tabag‘i 25
Shartli bosma tabag‘i 23
UrDU matbaa bo‘limida chop etildi.

UrDU matbaa bo‘limi matbaa faoliyatini boshlagani
haqida vakolatli davlat organini xabardor qilish to‘g‘risidagi
Tasdiqnomasi (№3802-835f-ad22-c709-fbd1-1129-1986) asosida faoliyat yuritadi.

Manzil: 220110. Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.
Telefon/faks: (0362)-224-66-01;
e-mail: ilmsarchashmalari@umail.uz
ilmsarchashmalari@mail.ru
Veb-sayt: www.ilmsarchashmalari.uz
Telegram: <https://t.me/ilmsarchashmalari>